

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.FIL/PED.83.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

ABDURAXMANOV SIROJIDDIN MUMINKULOVICH

**NEMIS TILINI IKKINCHI CHET TILI SIFATIDA O'RGATISHDA
LEKSIK DERIVATSIYALARDAN FOYDALANISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (nemis tili)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa dokrori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich

Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'rgatishda leksik derivatsiyalardan
foydalanish 3

Абдурахманов Сирожиддин Муминкулович

Использование лексических дериваций при изучении немецкого языка как
второго иностранного языка 27

Abdurakhmanov Sirojiddin Muminkulovich

The use of lexical derivation in teaching German as a second foreign language ... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ABDURAXMANOV SIROJIDDIN MUMINKULOVICH

**NEMIS TILINI IKKINCHI CHET TILI SIFATIDA O'RGATISHDA
LEKSIK DERIVATSIYALARDAN FOYDALANISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (nemis tili)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa dokrori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Ped.1555 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) (rezyume)) Ilmiy kengash veb- sahifasida ([http:// www. samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nazarov Pulat Djuramurodovich
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Maxmudova Muyassar Maxmudovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Saydaliyev Saydumar Saydaliyevich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot :

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.2019. Fil/Ped.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "7" aprel soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy, 93. Tel: (998366) 238-29-37; Faks: (998366) 210-00-18; E-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1455 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy, 93. Tel: (998366) 238-29-37; Faks: (998366) 210-00-18;

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "25" mart kuni tarqatildi.
(2023-yil "24" mart dagi 65 - raqamli reester bayonnomasi)



[Handwritten signatures in blue ink over the seal]

I.M.Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

G'.K.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

Sh.S.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati: Jahon miqyosida XXI asrga kelib chet tillarini o'qitishga bo'lgan talab va ehtiyojning keskin oshishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, chet tili o'qitishga turli yoshdagi ta'lim oluvchilarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashish, chet tili ta'lim tizimini kognitiv, sotsiolingvistik, pragmatik va lingvokulturologik tamoyillar asosida tashkil etish, chet tili o'qitish mazmunini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish bugungi kunning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Ana shu jihatdan chet tilini o'qitishning muhim zamonaviy vazifalaridan biri so'z boyligi va so'z hosil qilish jarayonida leksik birliklarning qo'llanishi bilan bog'liq masalalarning yechimiga qaratilgan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishdir. Leksik derivatlarning hosil bo'lishini va anglatgan ma'nosini o'rgangan holda chet tillarini o'qitish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, bugungi globallashtirish jarayonida dunyo amaliyotida chet tili, jumladan, nemis tilini o'qitish sifatini oshirish nuqtai nazaridan qaralganda o'qitish mazmuni va o'quv-metodik ta'minoti, ta'lim texnologiyalari, shuningdek, nazorat ob'ektivligini yanada takomillashtirish borasida yirik ilmiy-tadqiqot muassasalari va markazlari ish olib bormoqda. Garvard, Oksford, Gumbolt kabi dunyo miqyosida tan olingan universitetlarda leksik birliklarni innovation pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish va uni amaliyotga tadbiq etish bo'yicha tadqiqotlar olib borilayotgani alohida ahamiyatga molikdir. Zotan, chet tillarini o'qitishda ta'lim oluvchilarning so'z boyligini leksik derivatsiyalar orqali oshirish yordamida til o'rgatishning samarali usullarini xorijiy tillar ta'limiga joriy etish orqali til o'rganuvchilarga qulayliklar yaratish zaruriyatini belgilaydi.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan keng miqyosdagi islohotlar madaniyatlararo muloqot vositasi rivoji bo'lgan til ta'limi va tadqiqida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ayni damda siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar shu darajada yuksalib ketdiki, endilikda istalgan sohada yetuk mutaxassis bo'lib yetishish uchun har bir kishi dunyo miqyosida tan olingan xorijiy tillarni yoki ulardan birini chuqur bilishi zarur va shart deb hisoblanmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning bevosita sa'yi-harakati bilan davlatimizda 2030-yilga qadar oliy ta'limni, xususan, chet tillarni o'qitish tizimini tubdan isloh qilishga, rivojlangan mamlakatlar andazasida chet tillarni o'qitishga, xorijiy tillarni mukammal bilishga, yurtimizda tashqi turizmni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus yo'riqnoma ishlab chiqish to'g'risidagi Farmoni qabul qilingani ham bejiz emas, albatta. Shu boisdan ham, xorijiy tillarni o'qitish mazmunini yanada takomillashtirish, chet tili o'qitish metodikasiga innovatsion yondashish ta'lim sohasidagi siyosatimizning eng ustuvor masalalaridan biri sifatida tan olinmoqda. Shu jihatdan, "rivojlangan mamlakatlarning xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha tajribalarini o'rganish, yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish orqali chet tillarini o'qitish tizimida tub islohotlarni amalga oshirish" ta'lim siyosatimizning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oily ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // PF-5847. 08.10.2019 //lex.uz/docs/4545884.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish hamda ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlardagi faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi 312-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ham muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda so‘z yasalishi usullari hamda so‘zning hosilaviy shakllaridan samarali foydalanish borasida xorijda, xususan, Yevropada Walter Hensen, Johannes Erben, Werner Betz, Günter Storch, Wolfgang Fleischer, Irmhild Barz, Donales Elke, Lohde M., Höppner W., Karina Schneider – Wiejowski, Mac Agnieszka, Jerzy Kurylowicz² kabi olimlar mazkur sohada tadqiqotlar olib borishgan.

MDH mamlakatlarida leksik derivatsiya muammolari Z.A. Potixa, I.W. Raxmanov, V.V. Vinogradov, G.V. Gak, L.I. Korshilova, N.M. Shanskiy, A.A.Tixonov, L.F. Sadrade, N.V. Barishnikova, Ye. A.Zemskaya, M.D.Stepanova, Ye.S.Kubryakova, V.N. Musatov³ kabi olimlar tomonidan tadqiq

² Hensen Walter. Deutsche Wortbildung. 3.Aufl. -Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1965; Erben J. Einführung in die deutsche Wortbildungslehre. 4.Aufl. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2000. -182 S.; Betz Werner. Lehnwörter und Lehnprägungen im Vor- und Frühdeutschen. In: Fridrich Maurer/Heinz Rupp (eds.): Deutsche Wortgeschichte. 1974. –Berlin/New York: De Gruyter. S. 135-163.; Storch G. Wortbildung und Fremdsprachenunterricht, Teil 1. In: Zielsprache Deutsch. 1979.S.2-13.; Fleischer Wolfgang, Irmhild Barz. Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache.–Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1992. -382 S.; Donalies Elke. Die Wortbildung des Deutschen. –Tübingen: Gunter Narr Verlag, 2005.; Lohde M. Wortbildung des modernen Deutschen (ein Lehr- und Übungsbuch). – Tübingen, 2006. – S. 35-36.; Karina Schneider – Wiejowski. Produktivität in der deutschen Derivationsmorphologie. Dissertation zur Erlangung des Akademischen Grades PhD (doctor philosophae). – Bielfeld, 2011. S.228.; Mac Agnieszka. Einige Überlegungen zur Wortbildungslehre im fremdsprachlichen Deutschunterricht. Glottodidactica. VolumeXXXV. – Poznan. 2009. S.103-117; Mac Agnieszka. Zur Rolle der Wortbildung in ausgewählten DaF-Lehrwerken am Beispiel der Derivation. In Zielsprache Deutsch. 2011.S. 3-21; Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая. // В кн. «Очерки по лингвистике». – М.: Иностранная литература, 1962. 57-70 с.

³ Потиха З.А. Современное русское словообразование. –М.: Просвещение, 1970.-384 с.; Рахманов И.В. Методика преподавания иностранных языков в XIX – XX вв. – Москва: Педагогика, 1972. -220 с.; Виногородов В.В. Основные типы лексических значений слова. М.: Наука, 1977. -312 с.; Гак В.Г. Сопоставительная лексикология: Международные отношения, –М. 1977. - 263 с.; Коршилова Л.И. Обучение

qilingan.

Mamlakatimizda soʻz yasalişining turli jihatları A.Gʻ.Gʻulomov, A. Hojiyev, Yo.Tojiyev, G.M.Axmedova, G. Tleumuratov, Z.I. Sanaqulov ⁴ kabi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan.

Chet tilini oʻqitish masalari boʻyicha J.J. Jalolov, Oʻ.H. Hoshimov T.K. Sattorov, I.M. Toʻxtasinov, D.U. Hoshimova, S.A. Ziyayeva, G.T.Maxkamova, Sh.S. Ashurov, S. Saidaliyev kabi olimlar⁵ ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan, shuningdek, xorijiy til leksikasining shakllanishi va oʻrgatish metodikasi boʻyicha A.A. Isakova, P.J. Nazarov,⁶ ilmiy tadqiqotlar oʻtkazishgan.

Bugungi kunda nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida oʻrgatishda leksik derivatsiyalardan foydalanish alohida tadqiqot obʻyektı sifatida oʻrganilmaganligi tadqiqot ishining yuzaga kelishiga asos boʻldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Xorijiy tillarni oʻqitishning dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarga nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida oʻrgatishda leksik derivatsiyalardan foydalanish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

OTMLarda talabalar tomonidan nemis tilida leksik derivatsiyalarning

студентов неязыковых вузов словообразовательными моделями имен существительных с помощью программированных пособий. // Автореф. канд. диссертации.–М. 1977. – 23 с.; Шанский Н.М., Тихонов А.А. Современный русский язык. (учебник) Часть 2. Словообразование. Морфология. –М.:Просвещение, 1981. с. 269.; Садрадзе Л.Ф. Словообразовательная структура субстантивных словообразований в современном немецком языке:Автореф. дис. канд. фил. наук. –Тбилиси. 1986. -25 с.; Барышникова Н.В. Методика обучения второму иностранному языку в школе. // Уч.пособие. – Москва: Просвещение, 2003. 159 с.; Земская Е.А. Словообразование как деятельность. –М.: КомКнига, 2005. – 224 с.; Степанова М.Д., Фляйшер В.Теоретические основы словообразования в немецком языке.– Москва: Высшая школа, 1984. 263 с.; Степанова М.Д. Словообразование современнонемецкогоязыка. 2-сизд., испр. М:КомКнига, 2007. -376 с.; Кубрякова Е.С. Типы языковых значений (Семантика производного слова). Изд.5, стереотип.–М.:Наука, 2018. -208 с. Мусатов В.Н. Деривация и словообразовательная полисемия отглагольных существительных с нулевым суффиксом: монография – Москва: ФЛИНТА, 2017. 160 с.;

⁴Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразовании узбекского языка.Аффиксация: дис.док.фил.наук.-Т.:1955.-495с.; Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси ва сўз ясалиши масалалари.-Т.Фан,2010.-256 б.; Тожиёв Ё. Ўзбек тилида аффиксал синонимия: дис. фил.фан.док.-Т.:1992.-451б.; Ахмедова Г.М. Ўзбек тили дарсларида ўқувчилар нутқини ясама сўзлар билан бойитишнинг методик асослари: Дис. пед. фан.ном. –Тошкент. 2007. -162 б.; Тлеумуратов Г. Категория рода в системе деривации имен существительных в истории английского языка (на материале аффиксации и словосложения). –Нукус: Илимпаз, 2021. 160 с.; Санакулов З.И. Сўз ясалиши ва унинг лексикографик аспекти (немис ва ўзбек тиллари мисолида): Дис.филол.фан. фалсафа док.(PhD).-Тошкент.2021.-149 с.

⁵ Жалолов Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. 432 б.; Ҳошимов Ў.Ҳ. Ёкубов И.Я. Инглиз тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Шарк, 2003. -301 б.; Тухтасинов И.М. Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков: Дис.докт.пед.наук (DSc).- Ташкент.,2018.-203 с.; Зияева С.А. Лингвистик олий таълим муассасалари талабаларини немис тилида ўқитишда социолингвистик компетенциясини такомиллаштириш: Автореф.пед.фан.док.(DSc).-Т.: 2020.-72 б.; Жалолов Ж.,Махкамова Г.Т., Ашуров Ш.С. English language teaching methodology. Тошкент. Фан ва технология, 2015. -338 б. Сайидалиев С. Чет тили ўқитиш методлари. – Наманган: 2005,-240 б.

⁶ Nazarov P.J.Soʻzning derivatsion oʻzgarishi jarayonida oʻzak morfemaning tutgan oʻrni xususida // “Хорижий филология” jurnali. -Samarqand,2010, № 3 (36), 16-18-б ; Исакова А.А. Методика обучения деривации студентов-филологов национальных групп в курсе «современный русский литературный язык» // Дис.канд.пед. наук.-Ташкент. 1984.-180 с.

o'rganilish darajasini aniqlash;

nemis tilidagi so'z yasalishi usullarini o'rgatishning metodikasini ishlab chiqish;

nemis tilini o'rganayotgan o'zbek talabalari uchun nemis tilidagi leksik derivatsiyalarni o'rganishdagi qiyinchiliklarni hamda yasama so'zlarning tarkibida va so'z yasashda talabalarda kuzatiladigan tipik xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini takomillashtirish;

nemis tilida so'z yasalishi turlaridan samarali foydalanish orqali talabalarning faol va nafaol lug'at boyligini oshirishni dalillash.

Tadqiqotning ob'yektini mutaxassis tayyorlovchi OTMlarda nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'rgatishda leksik derivatsiyalar orqali talabalarning nemis tilidagi so'z boyligini oshirish jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti mutaxassis tayyorlovchi OTMlarda nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'rgatishda leksik derivatsiyalardan foydalanishning mazmuni, shakli va vositalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (tahliliy-statistik, tizimli-struktural, qiyoslash-taqqoslash metodlari), diagnostik (kuzatish, anketa-so'rovnomalar, tajriba-sinov ishlari o'tkazish) va matematik-statistik usullar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

oliy ta'lim muassasalarida nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitish jarayonida so'z yasalishining affiksatsiya, konversiya, kompozita va abbreviatura shakllarida hosil bo'lgan leksik derivatlarni lug'aviy va grammatik xususiyatlarini farqlash, o'zaro qiyoslash, nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri tanlash va qo'llash mexanizmi asosida isbotlangan;

nemis tilida so'z yasalishi bilan bog'liq prefiks (bekommen...), suffiks (Arbeiter...), sirkumfiks (verständlich...), konfiks (Kindergarten...), unikal morfemalar (Brautigam...) kabi so'z yasovchi leksik birliklar, shuningdek qo'shma so'zlar (Schul+tasche...), bir so'z turkumidan ikkinchi so'z turkumiga o'tish (weinen – das Weinen...), qisqartmalar (U-bahn...) kabi so'z yasash hodisalarini ongli qiyoslash, kreativ va tanqidiy fikrlashga undovchi didaktik mashq va topshiriqlar asosida lingvodidaktik va axborot metodik ta'minoti takomillashtirilgan;

talabalarning nemis tilidagi leksik derivatsiyalarni o'rganish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklari (masalan, "-er" suffiksini ham so'z yasovchi qo'shimcha, ham shakl yasovchi qo'shimcha, ham bog'lama element sifatida qo'llanilishi), so'zlarning tarkibini o'zlashtirish bo'yicha kuzatiladigan xatoliklari (masalan, nemis tiliga xos bo'lgan umlautli affikslardagi (Militär, Frisör - Militar, Frisor)) aniqlanib va ularni bartaraf etish qaratilgan topshiriqlar ishlab chiqilgan;

nemis tilida so'z yasalishi turlari (affiksatsiya, konversiya, kompozita va abbreviatura) yordamida talabalarning faol lug'at boyligini oshirishga ko'mak beruvchi mavzulashtirilgan, kundalik hayotda ko'p qo'llanadigan 1000ga yaqin leksik derivatlar shakllantirilib (dissertatsiyaga ilova qilingan), talabalarning leksik derivatsiyalar yordamida so'z boyligini oshishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz tilini asosiy til sifatida o'rganuvchi talabalarining ikkinchi xorijiy til sifatida nemis tilini o'rganishlarida leksik derivatsiya asosida talabalarning so'z boyligini oshirish texnologiyasi takomillashtirilgan;

nemis tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'rganuvchi talabalarga derivativ leksik birliklarni o'rganish jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalanish yuzasidan zarur metodik tavsiya va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

leksik derivatsiyalarga tayangan holda talabalarning nemis tilidagi nutqiy muloqatni yaxshilash bo'yicha og'zaki nutqda keng qo'llanadigan har bir mavzular yuzasidan lug'at-minimum yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda kognitiv va pedagogik ta'lim metodologiyasiga mos keluvchi zamonaviy tadqiqot metodlari qo'llanganligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning tegishli tuzilmalar tomonidan har tomonlama tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nemis tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda talabalarning faol so'z boyligini B2 darajasiga keltiruvchi derivativ leksik birliklardan foydalanishning metodik yo'riqnomasi ishlab chiqilganligi, oliy o'quv yurtlarida nemis tili o'qitishda duch keladigan o'ziga xos qiyinchiliklar bartaraf etish yo'llari ko'rsatilib berilganligi, bakalavr yo'nalishi birinchi va ikkinchi bosqich talabalari uchun o'qitishda derivatsiyalardan samarali foydalanish borasida metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida nemis tilida leksik derivatsiyalar asosida 19 ta mavzu bo'yicha tematik lug'at minimum yaratilganligi, derivativ leksik birliklar asosida nemis tili lug'at boyligini oshirishda samara beruvchi ta'lim texnologiyalari va metodlaridan dars jarayonida hamda nemis tili fanidan darslik, o'quv qo'llanma, o'quv dasturlari ishlab chiqishda samarali foydalanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishimizda ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsiya va ishlanmalar natijalari asosida:

leksik derivatsiyalardan xorijiy tilni o'qitish jarayonida amaliy foydalanish, derivatsiyalar bo'yicha mavjud nazariy bilimlarni berib borish bosqichma-bosqich ko'rinishda yo'lga qo'yilganligi, har bir bosqichga mos keluvchi mashqlar tizimi va derivatsiya turlari bo'yicha ilgari surilgan xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutining I-204-4-5 raqamli "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2021-yil 23-oktyabrdagi 2685/30.0201-son ma'lumotnomasi). Natijada, leksik derivatsiyalar orqali chet tilini o'qitishning nazariy va amaliy talablari, xususiyatlari ochib berilib, derivativ birliklar asosida chet tilini oqitishda samara beruvchi ta'lim metodlari bilan boyitilgan hamda xorijiy til, xususan nemis tili ta'limini rivojlantirishga xizmat qilgan;

nemis tilini leksik derivatsiyalar orqali o'rgatishning dolzarb muammolari va ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari va ahamiyatini ilmiy jihatlar va ilmiy, amaliy hamda metodologik g'oyalari, taklif va tavsiyalaridan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2021 yil 3-dekabr kuni efirga uzatilgan "Til bilgan el biladi" eshittirishida foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradio kompaniyasining 2021 yil 10- dekabrda 01-12/578-son ma'lumotnomasi). Natijada, televosita orqali derivatsion ifodalarning so'z boyligini oshirishdagi ahamiyati keng ommaga targ'ib etildi va bu orqali tinglovchilarning chet tili lug'at boyligini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ortishiga erishilgan;

nemis tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda leksik derivatsiyalardan amaliy foydalanish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar va xulosalardan Samarqand viloyat Maxdumi A'zam Dahbediy ilmiy tadqiqot Fondining № 71-07/48 raqamli "Buyuk huquqshunos olim Imom Ali Pazdaviy hayot-faoliyatiga doir yurtimizda ilk monografik kitobini chop etish" mavzusidagi grant loyihasida foydalanilgan (Samarqand viloyat Maxdumi A'zam Dahbediy ilmiy tadqiqot Fondining 2022-yil 11-yanvardagi ma'lumotnomasi). Natijada, mavzuga doir metodik tadqiqotlarda, kataloglar, albomlar, ilmiy-amaliy materiallar bazasi yaratishda muhim manba bo'lib hizmat qilgan;

talabalarning nemis tilidagi leksik derivatsiyalarni o'rganish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklari, so'zlarning morfem tarkibi bo'yicha yo'l qo'yadigan xatoliklar aniqlanganligi va ularning yechimi metodik yondashuv asosida takomillashtirilganligiga oid xulosa va takliflardan Samarqand davlat chet tillar institutining OT-Atex-2018-519 raqamli "Kompyuter imitatsion modellar asosidagi virtual resurslarni veb - ilovasini dasturiy ta'minotini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 12-fevraldagi 2269/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalar tomonidan so'z yasalishi bo'yicha yo'l qo'yiladigan xatoliklarining yechimi metodik yondashuv asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy maqola chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan doktorlik dissertatsiyalarinig asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, (jumladan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, asosiy matn 124 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti

va predmeti belgilangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot usullari aniqlangan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Oliy o'quv yurtlarida nemis tili o'qitishda derivativ birliklardan foydalanishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida derivatsiya tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, nemis tilida so'z yasalishi va uning turlari hamda leksik derivatsiyalardan foydalangan holda nemis tilini ikkinchi til sifatida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Uzoq yillar mobaynida so'z yasalish masalasi tilshunoslikning bir qator bo'limlari, jumladan, morfologiya, leksikologiya, grammatika kabi bo'limlarining o'rganish obyekti sifatida qaralmoqda. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tishimiz lozimki, ta'lim sohasiga qo'yilayotgan talab-ehtiyojlardan kelib chiqsak, so'z yasalish usullari va vositalaridan dars jarayonida samarali foydalanish bugungi kun chet tilini o'qitish metodikasi fanida ham munosib o'rin egallay boshladi.

Derivatsiya atamasi tilshunoslikka o'tgan asrning 30 – yillarida polyak tilshunosi E. Kurilovich tomonidan olib kirilgan. Bu so'z lotin tilidagi "derivato" so'zidan olingan bo'lib, "ajralish", "tarmoqlanish" kabi ma'nolarni bildiradi. Boshqacha aytganda, derivatsiya deganda biror bir elementning ikkinchi bir elementdan tarmoqlanib ajralib chiqishini anglatadi. Shuni aytish lozimki, ko'pchilik tilshunoslar leksik derivatsiyani so'z yasalishining sinonimi sifatida talqin etadilar. Biroq leksik derivatsiya, so'z yasalishidan farqli ravishda, hosila struktura (derivat) sathida ro'y beruvchi morfemalarning ichki munosabatini ham tekshiradi. Masalan, Arbeiter (ishchi) so'zini olaylik. Mazkur so'z yasama so'z qolipidagi hosilani taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, uning leksik derivatsiya mahsuli ekanligidan dalolat beradi. Agar mazkur hosila sathida qo'llanayotgan morfemalarning o'zaro munosabatga kirishuviga e'tibor qaratsak, quyidagilarni kuzatamiz: Arbeit (ish) - ob'yekt, -er (-chi)- ijrochi. Biroq ob'yekt bilan ijrochi hech qachon to'g'ridan- to'g'ri bog'lana olmaydi. Shu bois ular harakat ma'nosi orqali bir-biri bilan munosabat tashkil etmoqda. Demak, ayni paytda ob'yekt+harakat+ijrochi o'rtasidagi bog'lanishni ko'ramiz. Derivatsiya jarayonida ma'lum bir asos struktura bazasida hosila strukturaning vujudga keltirishi operand+operator=derivat ko'rinishida yuz beradi. Demak, leksik derivatsiyada so'z yasalishining asosi o'rniga "operand", leksik derivatsiyani shakllantiruvchi vosita "operator", leksik derivatsiyaning natijasi (hosila) derivat atamalaridan foydalaniladi.

Tilshunos olim A.Rahimovning talqiniga ko'ra "...so'z yasalishiga olib keluvchi hodisalar tilning muayyan bir sathi bilan chegaralanmaydi. Shunday ekan, so'z yasalishida ishtirok etadigan har bir sathga oid ichki qonuniyatlarni chuqur tahlil qilish va ularga xos umumiyliklarni belgilash orqali bunday munozarali holatlarga chek qo'yish mumkin"⁷ [54; 78].

Shu nuqtai nazardan dunyo tillaridagi so'z yasash jarayonida yuz beruvchi o'ziga xos xususiyatlarni tadqiq etish mazkur tillar taraqqiyotining sinxron va diaxron davrlari nuqtai nazaridan hamisha dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Bir

⁷ Рахимов А.С. Лексик ва семантик деривация муаммолари. – Т.: Наврўз, 2011. 170 с.

qarashda tillardagi soʻz yasalishi nisbatan oddiydek koʻrinadi. Biroq soʻz yasalishini tarixiy nuqtai nazardan oʻrganib chiqadigan boʻlsak, u juda murakkab va koʻp qirrali jarayon ekanligini guvohi boʻlamiz.

Soʻzning derivatsion tarmoqlanish hodisasi juda murakkab va koʻp qirrali jarayondir. Maʼlumki, koʻpchilik tillarda soʻz yasalishida affiksatsiya usuli keng qoʻllaniladi. **Affikslar** prefiks, suffiks va infikslarga boʻlinadi. Nemis tilidagi soʻz yasalishida feʼl, ot, sifatga taaluqli boʻlgan oʻzak morfemaning biror bir prefix, suffiks yoki har ikkalasi bilan qoʻshilib kelishi natijasida yangi maʼnoli soʻz hosil qilinadi. Masalan: prefiks + oʻzak: **ver+kauf(en) = verkaufen**, oʻzak + suffiks: **schön + heit = die Schönheit**, prefiks + oʻzak + suffiks: **unter + such + ung = die Untersuchung**, prefiks + fleksiya asosida oʻzgargan oʻzak: **vor + wurf = der Vorwurf**. Shuningdek nemis tilidagi derivatsiyada birdan ortiq prefiks yoki suffiks ham ishtirok etishi mumkin. Misol uchun: **der Freund + lich + keit = die Freundlichkeit**.

Qoʻshma soʻzlar murakkab yasama soʻzlar toifasiga kiradi. Masalan: **Schwarzbrot, Reisekarte, Kinderzimmer Schriftsteller, Krankenpfleger, Wohnungsförderungsgesetz** va boshqalar.

Nemis tilidagi soʻz yasalishining yana bir unumdor usuli bu **konvertsiya** hodisasi. Konvertsiya asli lotincha soʻz boʻlib, “aylanish, oʻzgarish” maʼnosini beradi. Nemis tilida odatda feʼl soʻz turkumiga tegishli soʻz koʻpincha ot soʻz turkumining grammatik kategoriyalarini qabul qilib, konvertsiyaga uchraydi. Masalan: *schwimmen* (suzmoq) – das *Schwimmen* (suzish), *schreiben* (yozmoq) – das *Schreiben* (yozuv). Sifat soʻz turkumi ayrim german tillarida konvertsiyaga uchrab, otga aylanishi mumkin, biroq bunday holat hamma german tillariga xos emas. Misol uchun: ingliz tilida: *The White and the Black* (oqlar va qoralar)... nemis tilida: *krank* (sifat) – kasal, *der Kranke /die Kranke* (ot) – kasal (odam)...

Bir soʻz turkumidan boshqa soʻz turkumiga oʻtish asosida ham nemis tilida yangi derivatsion tarmoqlanishlarni kuzatish mumkin. Masalan: **grün** – yashil (sifat), **das Grün** – yashil rang, koʻkat (ot); **lachen** – kulmoq (feʼl), **das Lachen** – kulgu (ot); **der Dank** – minnatdorchilik (ot), **dank** – sharofati bilan, tufayli (predlog) va boshqalar.

Qisqartma soʻzlar. Soʻzlarni va soʻz birikmalarini qisqartirish orqali turli xil abrivaturalar hosil qilinadi. Xususan, nemis tilida **Verkürzungen**–soʻz oʻrnida uning biror bir qismini keltirish: nemis tilida: *Die Uni* (Universität), *das Lab* (Laboratorium), *die Porno* (Pornographie), *Prof.* (Professor), *das Abi* (Abitur), *das Abo* (Abonement, *hundertpro* (hundertprozentig), *das Rad* (Fahrrad), *das Cello* – (Violoncello), ingliz tilida: *ad* (advertisement), *disco* (discotheque), *fax* (telefax), *photo* (photography), *exam* (examination), *pub* (public house), *phone* (telephone); soʻz oʻrnida uning bogʻinlaridan ayrimlarini keltirish (**A**[us]**zubi**[ldende/r], **Ki**[nder]**ta**[gesstätte]), Covid-19 – CoronaVirus in December; bosh harflar orqali qisqartma soʻz yaratish (**DaF** – Deutsch als Fremdsprache, **usw.** – und so weiter); atama nomlar qisqartmasi (**EU, DVD**); “-o” yoki “-i” bilan tugovchi qisqartmalar (**Profi, Disco**).

Jahon mamlakatlarida nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida oʻqitilishi bu borada qilinadigan ishlar ulkan yoʻnalishning tizimi, dasturlari, qoʻllanmalari, turli

mavzularda lugʻatlarning ishlab chiqilishini taqozo etadi va hozirgi dolzarb vazifa bajarilishi lozimligini kun tartibiga chiqaradi. Ikkinchi chet tilini tanlashda quyidagi asosiy omillar hisobga olinadi:

- chet tilining butun dunyoda tarqalganligi va ommabopligi darajasi;
- jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi;
- mintaqaga doir shart –sharoitlar va ehtiyojlar;
- mutaxassislarni tayyorlash;
- talabalarda kommunikativlik va anglash ehtiyoji hamda qiziqishlarning mavjudligi.

Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida oʻrganishda quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

- ikkinchi chet tiliga oʻqitishning psixolingvistik qonuniyatlari;
- ikkinchi chet tiliga oʻqitishning didaktik-uslubiy asoslari.

Ilmiy tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, koʻp tilli oʻqitish nihoyatda murakkab, shuningdek, ikkinchi chet tilini oʻqitishning bir qator oʻziga xos qiyinchiliklari bor, ikkinchi chet tilini egallash eng kamida ikki qonuniyatni yuzaga keltiradi:

a) interferensiya muammolari nafaqat ona-tili, balki birinchi chet tili tomonidan ham yuzaga keladi;

b) shu bilan bir qatorda, aytilayotgan fikr yoki jummalarni bir tildan ikkinchi chet tiliga ijobiy koʻchirish uchun ham katta imkoniyatlar ochiladi.

Shu sababli ikkinchi chet tiliga oʻrgatishda samaradorlikka erishish uchun zarur boʻlgan talablardan biri qiyosiy jihatdan yondashuvni amalga oshirish hisoblanadi.

Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida oʻrganish jarayonida uning oʻziga xos tomonlari, qiyinchiliklari borligini ham hisobga olish zarur boʻladi:

- yaʼni asosiy oʻquv materialidan tashqari u yoki bu topshiriqlarni bajara olish;

- lugʻat va maʼlumotnomalar bilan ishlay olish;

- chet tilida qoʻshimcha adabiyotlar, jadvallar, statistik maʼlumotlar va koʻrgazmali materiallar bilan ishlay olish.

Qiyoslash, tahlil qilish va fikrlarni umumlashtirish talabaga nemis tili grammatikasiga oid materialni egallashida katta yordam beradi. Oʻquv jarayoni soʻz boyligini oshirish, yaʼni soʻz boyligini oshishiga yoʻnaltirilgan boʻlishi shart. Agar talabalar oʻrganyotgan tilning soʻz yasalishi usullaridan xabardor boʻlsalar, ikkinchi chet tilini egallash jarayoni ancha intensivlashgan holatda amalga oshirilishi mumkin.

Til oʻrganishda oʻqitish sharoiti, maqsadi, mazmuni tushunchalari orqali ikkinchi til metodikasi tahlil qilingani kabi, bizning fikrimizcha, ikkinchi chet tilini oʻqitishga toʻgʻri yondasha bilish, ayniqsa, ikkinchi xorijiy tilni oʻrgatishga muvofiq keluvchi oʻqitish uslublaridan amaliy foydalana olishga alohida ahamiyat qaratish talab etiladi. Vaholanki, koʻp oʻqituvchilar ikkinchi chet tiliga hos boʻlgan lugʻaviy birliklar ustida ishni toʻgʻri tashkil eta olmaydilar, yaʼni bu jarayonda aksariyat oʻqituvchilar mavzuga doir maʼlum bir lugʻaviy birliklargagina tayanish bilan chegaralanadilar, ular bunday lugʻaviy birliklarni nutqda qoʻllanilishi va bu birliklarning boshqa maʼnodoshlari bilan uygʻunligini ochib

bermaydilar.

Nemis tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'rganishda muammoli vaziyatlar yaratish, talabalarda mantiqiy fikrlashni yuksaltirish uchun, bizningcha, nemis tildagi derivativ ifodalardan unumli foydalanish va bunday ifodalarni birinchi chet tili sifatida o'rganiladigan tildagi lug'aviy birliklar bilan solishtirish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot muammosi yuzasidan nemis va ingliz tilidagi leksik derivatsiyalarning qiyosiy tahlili bo'yicha olimlarning turli tillardagi so'z yasash usullarini qiyosiy o'rganish, uning mohiyatiga nisbatan qarashlari yoritilgan, leksik derivatsiya xususiyatlarini aniqlovchi kompleks shartlar tavsiflangan.

Ikki tilning qiyosiy tahlilida oldimizda lingvistik va metodik vazifa turadi. Tillarning umumiy va farqli jihatlarini imkon qadar to'liq va chuqur yoritish lingvistik tahlilning vazifasi hisoblanadi. Metodik tahlilning vazifasi o'quv jarayonini jadallashtirish uchun lingvistik tahlil natijasida olingan materialni bosqichma-bosqich dars jarayoniga tadbiiq qilish mashqlar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

1-jadval.

Nemis va ingliz tillarida eng unumli qo'shimchalar va ularning semantikasi

Nemis tilida	Ingliz tilida	Qo'shimcha anglatgan semantik ma'no	Misollar
-er	-er	turli kasb egalari xos so'zlar yasaydigan shaxs oti yasovchi qo'shimcha	Arbeit+er=Arbeiter / work+er=worker...
-in	-	jenskiy rodga oid kasb egalari hosil qiluvchi shaxs oti yasovchi qo'shimcha	Lehrer+in=Lehrerin / teacher...
-heit, -keit	-ness	Sifatdan mavhum ot yasovchi qo'shimcha	schön+heit=Schönheit / good+ness=goodness...
-schaft	-ship	Aniq otdan mavhum ot yasovchi qo'shimcha	Freund+schaft=Freundschaft / friend +ship=friendship
un-	un-	Inkor ma'no beruvchi old qo'shimcha	un+klar=unklar / un+clear = unclear...
ur-	-	Uzoq o'tmishga aloqadorlikni bildiruvchi old qo'shimcha	Urgrossvater, Urgrossmutter, uralt...
-lich, -ig	-ly	Xususiyatni anglatuvchi qo'shimchalar	Glück+lich=glücklich / happy+ly=happily ...
-ung	-ing	Faoliyat oti yasovchi qo'shimcha	Tagung, Sitzung, /meeting...
-ieren	-e	otdan fe'l hosil qiluvchi qo'shimcha	reparieren=repair, operieren = operate...

Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o'rgatishda quyidagi tamoyillarga tayanishni taklif qildik.

- ona tili va birinchi chet tiliga tayanish tamoyili;
- qiyoslash tamoyili;

Ushbu tamoyillar ichida talabalarning ona tili va birinchi chet tilini hisobga olish tamoyiliga alohida e'tibor qaratdik. Nemis tilidagi leksik derivatlarni ikkinchi chet tilida o'rgatishda qiyoslash usullari ham juda muhim bo'lib, bunda birinchi til ingliz tili nemis tili bilan birgalikda german tillariga kirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Nemis tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'rganish O'zbekistonda asosiy ixtisosligi ingliz tili bo'lgan talabalarga xoslanganligidan kelib chiqib, ingliz va nemis tillaridagi yasama so'zlar, jumladan affiksatsiya yordamida hosil qilinadigan sodda yasama so'zlarni har ikki tilda o'zaro solishtirish maqsadga muvofiqdir.

Masalan,

o'zbek tilida: kitob javoni – so'z birikma;
 rus tilida: книжная полка – so'z birikma;
 nemis tilida: Bücherschrank – qo'shma so'z;
 ingliz tilida: bookshelf – qo'shma so'z.

yoki:

o'zbek tilida: kunduzgi nur – so'z birikma;
 rus tilida: дневной свет – so'z birikma;
 nemis tilida: Tagelicht – qo'shma so'z;
 ingliz tilida: daylight – qo'shma so'z.

Jumladan, ingliz va nemis tillaridagi ot yasovchi suffikslarni quyidagicha solishtirish mumkin:

2-jadval.

Nemis va ingliz tillarida ot yasovchi qo'shimchalar va ularning semantikasi

Qo'shimcha anglatgan semantik ma'no	Ingliz tilida qo'shimcha va misollar	Nemis tilida qo'shimcha va misollar
Insonning kasbi, siyosiy yo'nalishi yoki millatiga ta'luqli bo'lgan suffikslar	-ist (specialist, socialist, artist), -an, -ian, -ean, (historian, librarian, Italian, musician, Iranian, European)	-ist (Specialist, Socialist, Artist), -er, -ianer, (Italianer, Musiker, Europeaner)
Biror bir ta'limot, siyosiy harakatni anglatuvchi suffikslar	-ism (capitalism, socialism, heroism)	-ism (Capitalism, Socialism, Heroism)
Nima bilandir shug'ullanish yoki shaxsning lavozimini anglatuvchi qo'shimchalar	-er, -or, -ee, -eer, -ant, -ent, -ar, -ard, -ier (teacher, driver, inventor, actor, employee, referee, auctioneer, mountaineer, servant, student, beggar, drunkard, financier)	-er, -or, -ant, -ent, (Lehrer, Fahrer, Doktor, Aspirant, Student, Bettler, Säufer)
Harakat natijasini anglatuvchi suffikslar	-ment, -ade (achievement, decade, blockade)	-nis, -ade (Ergebnis, Dekade, Blockade)

Ma'lum bir holat, tartib, munosabat darajasini anglatuvchi qo'shimchalar	-hood, -ship, -cy, -acy, (brotherhood, childhood, leadership, partnership, policy, accuracy, infancy, supremacy)	-schaft, -heit, -keit, -ei, (Bruderschaft, Kindheit, Partnerschaft, Polizei)
Faoliyat, holat, jarayon, natija ma'nosini anglatuvchi suffikslar	-age, -ing, -ence, -ance, -ion, -tion, -ition, -ation, -sion, -al (shortage, leakage, marriage, hunting, painting, silence, difference, importance, resistance, collection, dictation, competition, preparation, hesitation, decision, division, removal, arrival, refusal)	-keit, -um, -tum, -ung, -tion (Wichtigkeit, Kollektion, Entscheidung, Entfernung)
Sifat yoki holatni bildiruvchi suffikslar	-dom, -ness, -ty, -ity, -ancy, -ency, -y (freedom, kingdom, readiness, darkness, kindness, activity, safety, possibility, nationality, brilliancy, constancy, fluency, dependency, perjury, modesty)	-tät, -keit, -schaft (Aktivität, Nationalität, Möglichkeit, Bereitschaft)
Harakat, holat yoki mashg'ulotning o'rnini bildiruvchi qo'shimchalar	-ry, -y (bakery, surgery, cookery, factory, laboratory)	-ei, -ium (Bäckerei, Laboratorium)
Fanning biror bir sohasini ko'rsatuvchi qo'shimcha	ics (physics, politics, mathematics)	-ish, -ik (Spanisch, Englisch, Russisch, Mathematik)
Ayol jinsini ko'rsatuvchi qo'shimchalar	-ess, -ette (waitress, actress, poetess, usherette)	-in (Schriftstellerin)
Millatni anglatuvchi qo'shimcha	-ese (Chinese, Japanese)	-e, -er (Uzbeke, Japaner)
Kichraytirish yoki ma'noni pasaytirishga qaratilgan qo'shimchalar	-ie, -let (birdie, cloudlet, kinglet)	-chen, -lein (Vogelchen, Tishlein)
Turli xil o'lchamlarni belgilovchi qo'shimcha	-th (length, growth, depth)	-e (Grosse)
Har xil ilmiy tushunchalarni hosil qiluvchi suffikslar	-ture, -ure, -iure, -sure, -ssure (mixture, failure, measure, pressure)	-e, -er (Mixer, Presse)
Alohida ajralib turuvchi guruh, uyushmalarni hosil qiluvchi suffikslar	-ty, -ity, -y (safety, royalty, popularity) [engblog.ru/affixation]	-tät, -at (Popularität, das Diktat, das Konsulat)

Ingliz va nemis tillaridagi ot yasovchi qo'shimchalarni yuqoridagi tartibda o'zaro qiyoslash orqali talabalar har ikkala tilda ham tegishli suffikslarni, ham shu suffikslarni qollanilish o'rnini yaxshi tushunib olishadi, shu bilan birga so'z

boylıklarini oshiradi. Bu kabi taqdimot shakllaridan dars jarayonida samarali foydalanish talabalarga derivatsiya yo‘li bilan hosil qilingan so‘z va derivativ ifodalarni amalda to‘g‘ri qo‘llay bilish hamda o‘rganilayotgan chet tillar doirasida muloqotni to‘g‘ri tashkil qilishlariga imkon beradi.

Dissertatsiyaning **“Nemis tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda derivatsiyalardan foydalanishning lingvometodik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida nemis tilini xorijiy til sifatida o‘rganishda talabalar tomonidan yo‘l qoyiladigan tipologik xatolar tavsifiga hamda nemis tilini ikkinchi til sifatida o‘rgatishda derivatsion ifodalardan tematik jihatdan foydalanish va leksik derivatsiyalardan amaliy foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bayoniga bag‘ishlandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘zbek talabalari nemis tili morfemikasini o‘zlashtirishda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishlari aniqlandi:

- yasama so‘zlarni morfem qismlarga ajratishda qiynaladi;
- ajraluvchi va ajralmaydigan old qo‘shimchalarning gapdagi semantik ma‘nosini to‘g‘ri tushunib yetishmaydi;
- nemis tilidagi o‘zak va negiz munosabatlarida chalkashliklarga yo‘l qo‘yadi;
- nemis tilidagi negiz yasovchi qo‘shimchani suffiksdan, prefiksni predlogdan farqlashda qiynaladi;
- so‘z yasovchi qo‘shimchalarni, so‘z shakli hosil qiluvchi qo‘shimchalardan yoki bog‘lama unsurlardan farqlay olmaydi.

Yana shuni ta‘kidlab o‘tishimiz kerakki, o‘zbek talabalarining nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘rganishlarida asosiy muammo nemis tili strukturasi, bu tilning grammatik qurilishi bilan bog‘liq. Bizning fikrimizcha, aynan o‘rganilayotgan til qurilmasidagi qiyinchiliklar tufayli aksariyat talabalar tilga bo‘lgan ichki motivatsiyasini yuqotib borishadi.

Kommunikativ metodika asosida o‘qitishda o‘rganilayotgan til strukturasi va grammatikasi talabalarining mavzuga va nutqiy muloqotga bo‘lgan mantiqiy va kreativ yondashuvi orqali o‘zlashtirilib boriladi. Shu boisdan barcha talabalar nemis tilining o‘ziga xos qurilmasi va grammatikasining mohiyatini to‘liq tushunib yetishmaydilar. Natijada ular xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida ko‘plab tipologik xatoliklarga yo‘l qo‘yadilar.

O‘zbek talabalarining ikkinchi chet tiliga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyalarini oshirish, ularning nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘rganishlaridagi faol lug‘at zahirasini B2 talablari darajasiga yetkazish maqsadida biz tomonimizdan kundalik hayotda ishlatiladigan 1000 ga yaqin derivativ tarmoqlangan so‘zlar tematik jihatdan shakllantirilib, ular 19 ta mavzudagi tematik lug‘at minimumga kiritildi. Leksik derivatlarni o‘rganish va tahlil qilishda tematik yondashuv barchaga ma‘lum va tadqiqotchilar tomonidan keng foydalanib kelingan. Nemis tilidagi leksik derivatlarni tematik jihatdan tasniflash juda keng tarqalgan bo‘lib, ishimizda batafsil leksik derivatsiyalar tasnifiga e‘tibor qaratigan. Mazkur lug‘at minimumdan jami qo‘yidagi derivat ifodalar o‘rin egalladi:

1. Qo‘shma so‘zlar - 302 ta;

2. So‘z yasovchi qo‘shimchalar asosida hosil qilingan sodda yasama so‘zlar - 297 ta;
3. Qisqartma so‘zlar - 42 ta;
4. O‘zakdagi tovush o‘zgarishi bilan (ichki fleksiya asosida) yuzaga kelgan derivatlar - 30 ta;
5. Chet tilidan o‘zlashib, u yoki bu darajada derivatsiyaga uchragan so‘zlar – 53 ta;
6. Derivatsiya asosida hosil qilingan sinonimlar va antonimlar - 186 ta;

Tadqiqot ishimizda talabalarning mantiqiy tafakkur asosida va kreativ fikrlashlariga tayangan holda leksik derivatsiyalarni o‘zlashtirishlarida **Case-study, Mind Map, Aqliy hujum** kabi interfaol metodlar asosiga qurilgan pedagogik texnologiyalarga tayanilgan metodik mashqlardan foydalandik.

Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘rgatishda leksik derivatsiyalardan foydalanish vositasi sifatida quyidagi talablarga mos keladigan mashqlar tizimi taklif etildi:

- mashg‘ulotning asosiy maqsadi bilan bog‘liq bo‘lgan leksik derivatlarning shakllanishiga yordam beruvchi aniq vazifani hal qilishga qaratilgan mashqlar;
- leksik derivatlarning o‘rgatishda aniq vazifa echimini topishga yo‘naltirilgan;
- so‘z boyligini oshirishga qaratilgan harakatlarni bajarish va kerakli materiallarni tanlash;
- mashqlarning talabalarning o‘qitilganlik darajasiga muvofiq kelishi.

Jumladan, ma‘lum bir derivatsion leksik qatlamni dars jarayonida mustahkamlash uchun talabalarni kichik guruhlariga taqsimlab, har bir guruhga derivativ ifodalardan biri bo‘yicha nutqiy vaziyat yaratish topshirig‘ini berish, bu topshiriq bajarilgandan so‘ng talabalar o‘rin almashib, kursdoshlari tomonidan yaratilgan nutqiy vaziyatlarni o‘rganishlari, ularni o‘zlarining fikr-mulohazalari bilan solishtirishlari; ingliz tilini asosiy chet tili sifatida o‘rganayotgan talabalarga, affikslarning derivatsion tarmoqlanishi asosida so‘z yasalişhida nemis tilidagi qo‘shimchalarning semantik xususiyatlarini, jumladan nemis tilidagi ajraluvchi old qo‘shimchalarning aksariyat hollarda so‘z ma‘nosiga qisman o‘zgartirish kiritishini va aksincha, ajralmovchi old qo‘shimchalarning so‘z ma‘nosini to‘ligicha o‘zgarishiga olib kelishini talabalarga tushuntirish (masalan: **kommen** – kelmoq, **ankommen** – yetib kelmoq, **einkommen** – foyda olmoq, **abkommen** – **kelishib olmoq** va boshqalar); yoki nemis tilidagi affikslarni talabalar nechog‘li bilib olishganini aniqlash maqsadida “domino” o‘yinidan foydalanish kabi didaktik mashqlar ta‘limni tashkil etishning zamonaviy metodlariga uyg‘unlashtirilgan holda tashkil etildi.

